



HUDUDLARDA SOLIQ SALOHİYATINI SAMARALI BOSHQARISH

*Bank-moliya akademiyasi magistranti
G'oyimov Xusayn Bahodir o'g'li
G'oyimov_xb@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqola soliq munosabatlarini tartibga solishda soliq alohiyatining ahamiyatini tadqiq qilish va uning byudjet daromadlarini oshirishdagi rolini asoslashdan iborat. Maqolada byudjet daromadlariga soliq potensialini iqtisodiy chegaralash tahlili va bu bo'yicha xulosa va takliflar berilgan. Soliq alohiyatini baholash byudjet tizimida soliq tushumlarini o'sishini ta'minlaydi. Shuningdek, ushbu tadqiqotda soliqlar va soliqqa tortish nazariyasi va uslubiyati, byudjetlararo munosabatlarni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari hamda soliq raqobati jarayoni, bundan tashqari, hududning soliq salohiyatini baholash muammolari ochib berilgan. Bundan tashqari mahalliy byudjetlar daromad bazasini hisoblashda soliq potensialidan O'zbekiston sharoitida foydalanish borasida mustaqil izlanishlarimiz natijalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: soliq salohiyati, byudjet, byudjet daromadlari, soliq, soliqli daromadlar, soliq potentsiali, reprezentativ soliq tizimi, soliqqa tortish, soliq yuki, soliq sig'imi, mahalliy byudjet, soliq ma'murchiligi, subvensiya, dotatsiya, hududlar iqtisodiy salohiyati, byudjet ssudalari, mahalliy soliqlar, fiskal omil.

Abstract: This article is a study of the importance of tax potential in regulating tax relations and substantiating its role in increasing budget revenues. The article provides an analysis of the economic differentiation of the tax potential of budget revenues, as well as conclusions and proposals on it. Assessment of the tax potential ensures the growth of tax revenues to the budget system. This study also reveals the theory and methodology of taxation and taxation, prospects for the development and improvement of inter-budgetary relations and the process of tax competition, as well as the problems of assessing the tax potential of the territory. In addition, the results of our independent research on the use of tax potential in the conditions of Uzbekistan in calculating the revenue base of local budgets are presented.

Keywords: tax potential, budget, budget revenues, tax, tax revenues, tax potential, representative tax system, taxation, tax burden, tax capacity, local budget, tax administration, subventions, subsidies, economic potential of territories, budget credits, local taxes, fiscal factor.

KIRISH

Mamlakatimizda byudjet-soliq sohasida olib borilayotgan islohotlar zamirida aholi turmush farovonligini yuksaltirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojiga keng imkoniyat yaratish maqsadi mujassamdir. Xususan, iqtisodiyotda soliq yukini yanada kamaytirish, soliq solish



mexanizmini soddalashtirish hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirish borasidagi chora-tadbirlar ana shu maqsad ro'yobiga qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida byudjetga soliq tushumlarini ishonchli prognozlashtirish faoliyatni takomillashtirish, hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish ob'ektlarini to'liq qamrab olishni ta'minlash, hududlarning o'ziga xos xususiyatlari va soliq to'lash salohiyatini hisobga olgan holda Davlat byudjeti daromadlari prognoz ko'rsatkichlarining xolisligi va asosligini baholash, daromadlar prognozini sifatli shakllantirish borasida yetarlicha muammolar mavjudligi va ushbu jarayonlarni takomillashtirish borasidagi vazifalar belgilab berilgan edi¹. Darhaqiqat, bugungi kunda davlat byudjeti daromadlarini prognoz qilishda hududlarning soliq salohiyatini hisobga olish masalasiga yetarlicha e'tibor berilmay kelinmoqda, vaholanki, soliqlarni prognoz qilishning asosida soliq potensialni aniqlash yotadi. Soliq potensialini to'g'ri aniqlash esa byudjetga soliq tushumlarining kelib tushishini aniqlashda eng muhim baza bo'lib hisoblanadi.

Soliq potensialini ham soliqni prognoz qilish kabi murakkab iqtisodiy jarayon hisoblanadi. Soliq potensialini iqtisodiy munosabatlar makonida mavjud bo'lib, moliyaviy resurslarning hajmini, ularning shakllanishi va taqsimlanishi tartiblarini o'zida aks ettiradi. Soliq potensialni aniqlash prognoz ko'rsatkichlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishi bilan birgalikda u hududlar bo'yicha byudjetlararo munosabatlarni tartiblashda ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi, hududning potensialiga qarab subvensiya, ssudalarni taqsimlash mexanizmlarini shakllantirish mumkin².

Ta'kidlash kerakki, iqtisodiy sub'ektlarning soliq potensialini ularning moliyaviy resurslarga egaligi bilan o'lchanadi, davlat esa soliq siyosatini ishga solish orqali ushbu moliyaviy resurslar(potensial)ning qancha qismini byudjetga va boshqa maqsadlarda olishni oydinlashtiradi, ya'ni moliyaviy resurslar(potensial)ning qancha qismi soliq potensialiga aylanishining chegarasini o'rnatadi. Moliyaviy potensial iqtisodiy resurslarning tarkibi sifatida soliq potensialini o'z tarkibiga oladi, shu jihatdan moliyaviy resurslar sifatida shakllangan daromad(foyda), aylanma, mulluk, nomoddiy mulk ob'ektlarining ma'lum qismi yuqorida ta'kidlanganidek, soliq potensialiga aylantiriladi.

¹ Юлдашева У.А. Зарубежный опыт государственного регулирования предприятий малого бизнеса// Бизнес-эксперт. Иктисодиёт, 2020. №1(145). 181 б.(08.00.00. №3)

² Худойқулов С. К., Hududlarning soliq salohiyatini baholash metodologiyasini takomillashtirish // «Soliq ma'murchiligini takomillashtirish orqali soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya, Toshkent - 2018



ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlarning soliq salohiyatini aniqlash va tahlil qilish uslubiyatini takomillashtirishni nazariy va amaliy jihatlarini uzoq xorijlik N.Ferugilo, V.Oates, G.Brennan, R.Tannenvald, J.Buchanan, V.Fischel, K.Tieboutning ilmiy ishlarida atroflicha o'rganilgan³.

MDH mamlakatlari olimlardan A.S.Karataeva, N.D.Matrusova, A.D. Melnika, V.M. Rodionovoy, M.A. Osipova, G.B.Polyaka, S.G.Sinelnikova, O.A.Mironovoy, L.M.Arxiptsevov, M.R. Pinsky, F.F. Xanafeevalarning ilmiy tadqiqot ishlari⁴da hududlarning soliq salohiyati ko'rsatkichlari va uni belgilovchi omillar, hududlarning soliq salohiyatini baholash nazariyasi va amaliyoti o'z ilmiy tadqiqotlarida aks etgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi-olimlar M.Alimardonov, A.Vahobov, E.Gadoev, Sh.Gataulin, A.Jo'raev, X.Jamolov, T.Malikov, A.Mamanazarov, Sh.Toshmatov, N.Xaydarov, B.Toshmurodova, S.Xudoyqulov, N.Qo'zieva, S.Elmirzaevning ilmiy-tadqiqot ishlarida, soliqqa tortish amaliyotida hududlarning soliq salohiyatini aniqlash masalalari nazariy va ilmiy uslubiy jihatlarini qisman o'z aksini topgan.

A.Xayriddinov fikricha, har bir mahalliy ma'muriy hududdagi soliq tizimi tomonidan undirilishi lozim bo'lgan umumdavlat soliqlari bo'yicha soliq summalarining ma'lum bir qismini bevosita mahalliy byudjetlarning ixtiyorlariga birlashtirilgan daromadlar ko'rinishida qat'iy hissada va doimiy asosda qoldirilishi oldindan belgilanib qo'yilishi kerakligini ta'kidlaydi. Bunda asosiy urg'u daromadlarni byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida qayta taqsimlashning asosiy kombinatsion variantlaridan biri bo'lgan me'yoriy ajratmalar tizimini takomillashtirishga qaratilmoqda. Shuningdek, muallif bozor iqtisodiyotining talablaridan kelib chiqqan holda, mahalliy byudjetlar daromad bazalari barqarorligini ta'minlashda ularning birlashtirilgan daromadlariga ustuvorlik berish maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi. Umuman olganda fikrimizcha, me'yoriy ajratmalar va birlashtirilgan daromadlarni takomillashtirish orqali mahalliy byudjetlarni daromad bazasini kengaytirish boshqa muqobil qarorlar orasida samarali usullardan biri hisoblanadi.

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida ma'lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada iqtisodchi olimlarning davlat moliya tizimining dolzarb masalalaridan biri sifatida soliq salohiyatini samarali boshqarishga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan. Monografik kuzatuvlar asosida soliq salohiyati borasida fikrlarni umumlashtirish, unga mualliflik munosabatini bildirgan holda, O'zbekistonda hududlar soliq salohiyatini samarali

³ Nicoletta Ferugilo (2007). Overview of Fiscal decentralization. UNDP.; Wallis J., Oates W. Decentralization in the Public Sector: An Empirical Study of State and Local Government // Fiscal Federalism: Quantitative Studies / Ed. by H. Rosen. Chicago: University of Chicago Press, 1988. – P. 13-15. Brennan, G. The Power to Tax: Analytical

⁴ Xayriddinov A.B. Mahalliy byudjetlar daromad bazalarining barqarorligini ta'minlash yo'llari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. avtoreferati. –T.: 2011. –b. 13.




boshqarish ahamiyati yoritishga qaratilgan. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo'llanilgan xorijiy va milliy statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakat soliq potentsiali hududlar soliq potentsiali yig'indisidan iborat, hududlar soliq potentsiali o'z navbatida soliq to'lovchilarning soliq va yig'imlarni to'lash salohiyati sifatida izohlanib, yuridik va jismoniy shaxslarning maqomidan kelib chiqib ma'muriy-hududiy birliklarni solikli daromadlar bilan ta'minlash darajasi bilan bog'liq.

Xususan bir qator iqtisodchi olimlarimiz har bir mahalliy ma'muriy hududdagi soliq tizimi tomonidan undirilishi kerak bo'lgan umumdavlat soliqlari bo'yicha soliq summalarining aniq belgilangan ma'lum bir qismi bevosita mahalliy byudjetlarning ixtiyorlariga birlashtirilgan daromadlar ko'rinishida qat'iy ulushda va doimiy asosda qoldirilishi oldindan belgilanib qo'yilishi kerakligini ta'kidlaydilar.



1-rasm. Hudud moliyaviy salohiyatining tarkibi⁵

Bizning fikrimizcha, byudjet va soliq salohiyati tushunchalarini ajratish muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, Hudud soliq salohiyati byudjet salohiyatining asosiy ulushini tashkil qiladi, ammo hudud soliq salohiyati bilan bir qatorda soliqsiz byudjet daromadlarining salohiyatini ham o'z ichiga oladi. Ya'ni, davlat boshqaruvi orqali

⁵ Yuldasheva Umida, Hududlarning soliq salohiyatini aniqlash va tahlil qilish uslubiyotini takomillashtirish



daromad olish qobiliyati sifatida aniqlanishi, mavjud vakolatlarga muvofiq munitsipal mulk va tegishli organlar tomonidan xizmat ko'rsatish mumkin. Sxematik ravishda moliyaviy salohiyatning tuzilishini 1-rasmda ko'rsatilganidek aks ettirish mumkin.

Hududning moliyaviy, byudjet va soliq salohiyatlari sifat jihatidan turli xil ta'riflardir, chunki ular bir qator asosiy o'ziga xos xususiyatlarga ega, ammo ayni paytda ular tarkibiy jihatdan o'zaro bog'liq elementlardir, bu ularning o'xshashligining asosiy xususiyatlarini belgilaydi.

Byudjet tizimining turli bo'g'inlari o'rtasida daromadlarni qayta taqsimlash mexanizimining asosini hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi assimetrik tafovut tashkil etadi. Shuning uchun mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda, birinchi navbatda, hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirish va undan samarali foydalanish chora-tadbirlarini ishlab chiqish hisoblanadi. Hududlar bo'yicha bazaviy sharoitlarda undirilishi mumkin bo'lgan soliqlar yig'indisi keltirilgan(1-jadval).

Davlatning muvozanatli taraqqiyotini ta'minlash R.A.Masgreyv nazariyasiga ko'ra⁶, markaziy hokimiyatning asosiy funksional vazifasi hisoblanadi. Mamlakat aholisini davlat ijtimoiy xizmatlari bilan mutanosib ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlari hududiy iqtisodiy salohiyatni yuksaltirish va undan oqilona foydalanishni rag'batlantirish tizimini shakllantirishi zarurdir⁷.

1-jadval

Hududlar bo'yicha bazaviy sharoitlarda undirilishi mumkin bo'lgan soliqlar yig'indisi (2021 yil uchun prognoz.mlr.so'mda)⁸

№	Hudud nomi	An'anaviy usulda	Hududlarning soliq salohiyatini belgilash bo'yicha	Farqi
	JAMI	26 970,6	27 055,6	85,0
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 457,6	1 462,2	4,6
2	Andijon viloyati	2 093,5	2 100,1	6,6
3	Buxoro viloyati	1 776,9	1 782,5	5,6
4	Jizzax viloyati	1 098,4	1 101,9	3,5
5	Qashqadaryo viloyati	2 299,6	2 306,8	7,2
6	Navoiy viloyati	1 453,4	1 458,0	4,6
7	Namangan viloyati	1 738,1	1 743,6	5,5
8	Samarqand viloyati	2 336,2	2 343,6	7,4
9	Surxondaryo viloyati	1 537,1	1 541,9	4,8
10	Sirdaryo viloyati	675,7	677,8	2,1

⁶ Масгрейв, Р.А. Государственные финансы: теория и практика / Р.А. Масгрейв, П.Б. Масгрейв // Пер. с англ. – М.: Бизнес Атлас, 2009. – 716 с.

⁷ Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. No 1, yanvar-fevral, 2018 yil.

⁸ Manba: Iqtisodiyot va moliya vaziri ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi



11	Toshkent viloyati	2 766,9	2 775,6	8,7
12	Farg'ona viloyati	2 594,7	2 602,9	8,2
13	Xorazm viloyati	1 288,7	1 292,8	4,1
14	Toshkent shahri	3 853,5	3 865,6	12,1

Ushbu jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yildagi mahalliy byudjetlar prognozi keltirilgan. Bunda soliq salohiyatini belgilash mexanizmidan kelib chiqqan holda belgilangan prognoz va ungacha amal qilgan an'anaviy usulda belgilangan prognozga nisbatan afzalligi raqamlar bilan ifodalangan. Bundan kelib chiqib, 85 mlrd.so'm mablag' respublika byudjetidan tejalmoqda. Xususan, eng yuqori ko'rsatkich bo'lib Toshkent shahri 12,1 mlrd.so'm, biz tomonidan tahlil qilingayotgan Navoiy viloyati bo'yicha esa 4,6 mlrd.so'mni tashkil etmoqda.

Mahalliy byudjet daromadlarni prognozlashtirish formulalari soliq salohiyatiga bog'liq ravishda ishlab chiqilishi va shu asosda oshkoralik hamda bir xil yondashuv bilan prognoz belgilash, transfertlar ajratilishini adolatliligini ta'minlab beradi. Respublikamiz byudjeti mablag'larini tejalishi va samarali foydalanilishini ta'minlaydi.

Hozirgi kunda, soliq salohiyati ko'rsatkichlari uchun tizimli yondashuv yo'q, lekin u hudud soliq salohiyati foydalaniladigan barcha ko'rsatkichlar tizimi mavjud, asosiy element miqdoriy baholashga ega bo'lgan kategoriya sifatida hudud soliq salohiyati hisoblanadi. Respublikamizda soliqni takomillashtirish va hududning soliq salohiyatini rivojlantirish sohalarini aniqlash, boshqaruvda rejalashtirish funksiyasining timsoli sifatida baholashni nazarda tutadi, chunki hududlarning soliq salohiyatini baholamasdan, uning o'ziga xos miqdoriy parametrlarini aniqlash, uning rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash mumkin emas.

Umuman olganda, mamlakat soliq salohiyati hududlar soliq salohiyati yig'indisidan iborat, hududlar soliq salohiyati o'z navbatida soliq to'lovchilarning soliq va yig'implarni to'lash salohiyati sifatida izohlanib, yuridik va jismoniy shaxslarning maqomidan kelib chiqib ma'muriy-hududiy birliklarni solikli daromadlar bilan ta'minlash darajasi bilan bog'liq. Soliq salohiyati makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisobga olishi bilan birga soliq to'lovchining soliqqa tortish tartibi yuzasidan tanlovini ham e'tiborga qaratishni nazarda tutadi. Bu o'z navbatida mamlakatda qo'llanilayotgan soliq siyosati samaradorligi va soliq ma'murchiligi natijadorligi ko'rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi⁹.

Hududlar soliq salohiyatini baholash hududlar soliq salohiyatining o'lchanadigan ko'rsatkichlari tizimi, uni belgilovchi omillar va miqdoriy xususiyatga ega bo'lgan omillar hududlarining soliq salohiyatiga ta'sirini baholash usullari orqali taqdim etiladi. Hududlar soliq salohiyatini baholash usullari funksional-uslubiy asosda tasniflanib, nafaqat haqiqiy baholash usuli bilan, balki maqsadlar va prognoz

⁹ Islankulov A.K. Mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash masalalari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016 yil.



ufqlari bilan ham belgilanadi. Shu bilan birga, baholash usullarining kamchiliklarini bartaraf etishning taklif etilgan vositalarini hisobga olgan holda, qisqa muddatda hududlar soliq salohiyatini tizimsiz baholash uchun ekstrapolyatsiya usullarini tavsiya etish mumkin, uzoq muddatli tizimni prognoz qilish uchun modellashtirish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Maxalliy byudjet mablag'lari to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, ularning daromadlarining muhim qismi soliq tushumlaridan xisoblanadi. Soliq salohiyatini baholashda ko'plab yondashuvlar mavjud. Yondashuvlarning har biri ma'lum ko'rsatkichlarga ta'sir qiladi: aholining jon boshiga o'rtacha daromadlari, soliq stavkalari, soliq bazasi, yalpi hududiy mahsulot va boshqalar.

Soliq salohiyati makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisobga olishi bilan bir qatorda soliq to'lovchining soliqqa tortish tartibi yuzasidan tanlovini ham hisobga olishni nazarda tutadi. Bu o'z navbatida mamlakatda qo'llanilayotgan soliq siyosati samaradorligi va soliq ma'murchiligi natijadorligi ko'rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi.

Alohida soliqlar va yig'img'lar sharoitida hududning soliq salohiyatini baholash juda murakkab va vaqt talab qiladigan jarayondir, shuning uchun eng muhim soliqlarning soliq salohiyatini baholash va ularning rivojlanish tendensiyalarini bazis davriga nisbatan qolgan (oldindan aytib bo'lmaydigan) soliq to'lovlariga ekstrapolyatsiya qilish nazarda tutiladi¹⁰.

Prognozlash uchun bir xil ma'lumotlardan foydalanilganda, korrelyatsion va regression tahlil doirasida uch omil modeli hudud soliq salohiyatining eng aniq bahosini berdi, barcha modellashtirish usullari ham o'rta muddatli prognozlashni uch yillik ufq bilan amalga oshirishda yuqori aniqlikka ega.

Hududning soliq salohiyati, bir tomondan, "Hududning iqtisodiy tuzilishi bilan belgilanadi va uning soliq ob'ektlari yoki asoslari sifatida tan olingan soliq resurslari bilan ta'minlanishi bilan tavsiflanadi. Boshqa tomondan, aynan soliq salohiyati soliq tushumlarining moddiy asosini tashkil etadi va bu turli darajadagi byudjetlarning, shu jumladan hududiy daromadlar qismini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi"¹¹. Soliq salohiyatini ikki tomonlama baholashda e'tiborga olinishi kerak, bu hududning turli ijtimoiy iqtisodiy va ilmiy-amaliy muammolarini hal qilishda puxta yondashuvlarni ishlab chiqish uchun muhimdir. Soliq salohiyatini baholashning to'g'riligi va asosiligi asosan ishlatilgan asosiy ko'rsatkichlarga, usullar va uslubiy yondashuvlarga bog'liq¹².

¹⁰ Zaynutdinova U.D. Hududlar mahalliy byudjet daromadlarini oshirish masalalari // O'zbekiston iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishga bankmoliya tizimining samarali ta'sirini kuchaytirish. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tezislari to'plami. T.: Moliya, 2017. -b. 90.

¹¹ Слепнева Л.Р. Факторы, определяющие величину налогового потенциала Республики Бурятия // Вестник Экономист ЗабГУ. – 2013. – №6. – С. 122-136.

¹² Рогатенюк Э.В. Оценка параметров налоговой политики Республики Крым // Ученые записки КФУ им. В.И. Вернадского. Серия Экономика и управление. – 2017. – Том 3 (69). – №1. – С. 70-84.



XULOSA

Xulosa o'rnida yuqorida soliq salohiyati borasidagi keltirilgan fikr-mulohazalar, yondashuvlarni umumlashtirgan holda aytganda, soliq salohiyati shakllari, turlari tasniflash mezonlaridan kelib chiqib yanada kengaytirish mumkin.

Hudud soliq salohiyatining munozaraligi uni aniqlash hamda tahlil qilish uslubiyoti asosini nazariy jihatdan o'rganishning kamchiliklaridan dalolat beradi, faoliyat yuritishi uchun yetarli ilmiy asos yo'qligiga va natijada davlatning soliq va byudjet tizimlarining real kamchiliklariga olib keladi. Pirovardida, bu natijada yuzaga kelgan salbiy soliq oqibatlarini yoki xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida davlat tovarlarini taqsimlashning salbiy oqibatlarini bilan ifodalanadi, bu esa hudud soliq salohiyatini nazariy asoslari kamchiliklarini bartaraf etishni talab qiladi.

Hudud soliq salohiyati aniqlashda, modellarning klassifikatsiya variantlarini o'rganish asosida asosiy klassifikatsiya mezonlarini ajratish va detallashtirish bilan ajralib turadigan klassifikatsiya taklif etiladi. Asosiy tasniflash mezoni sifatida hokimiyat (raqobat, kooperativ (muzokara) va raqobatiz) soliq vakolatlarining doirasi va o'ziga xosligiga qarab hudud soliq salohiyati aniqlashda va tahlil qilishda, modellar o'rtasidagi farqdan foydalanish taklif etiladi. Batafsil mezonlar sifatida, modellar soliq raqobat rivojlantirish darajasiga ko'ra bo'linadi (bozorni saqlash, va bozor rivojlanishiga to'sqinlik), hokimiyat moliyaviy mustaqillik darajasi, va hokimiyat ta'siri imkoniyati hududning soliq salohiyatini shakllantirish va uning rivojlanishida ularning qiziqishini ortirish.

Bugungi kunda respublikada hududlar soliq salohiyatini rivojlantirish ta'siri cheklangan qobiliyati va hududlar qiziqishi, O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjetining soliq tushumlari, hududiy va mahalliy soliqlar past ulushi bilan xarakterlanadi. Shu bilan birga, zamonaviy soliq tizimi sharoitida, soliq salohiyati raqobat xususiyatlarini mustahkamlash, masalan, hududlar soliq salohiyatini oshirish hissasi, uning takomillashtirish uchun konseptual yo'nalishlarini amalga oshirish talabi, byudjetlararo munosabatlar rag'batlantirish funksiyasini rivojlantirish, yangilik va investitsiya jarayoni uchun soliq imtiyozlarini faollashtirish.

Soliq salohiyatini aniqlash, davlatda faoliyat ko'rsatayotgan soliq resurslarini shakllantirish va taqsimlashga oid munosabatlar majmui sifatida byudjet va moliyaviy salohiyatning ajralmas qismi bo'lgan hududlarning soliq salohiyatini belgilaydi. Bu ta'riflar sifat jihatdan har xil va shu bilan birga, strukturaviy jihatdan o'zaro bog'langan elementlar bo'lib, ularning o'xshashligining asosiy xususiyatlarini belgilaydi.

Hududlar soliq salohiyatini aniqlashda mavjud resurs, fiskal va aralash yondashuvlar qatorida aralash yondashuv respublikaning zamonaviy soliq tizimi sharoitlariga eng mos keladi. Moliya va resurs tarkibiy qismlaridan tashqari, hududlar soliq salohiyatining institutsional xususiyatlarini hisobga olib, uni soliq organlari tomonidan boshqarilganidek, amaldagi Qonunchilik va soliq siyosati



kontekstida aks ettirishni talab qiladi. Hududlarning soliq salohiyati mohiyatiga resurs va fiskal yondashuvlarni farqlash doirasida to‘rta asosiy farqlovchi xususiyatlar (nazariy va uslubiy jihatlar), funksional (soliq funksiyasiga asoslangan), muhim (soliq salohiyati va haqiqiy soliq daromadlarini farqlashga asoslangan) va faktorial(prognozni tanlash ufqida) aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: “Adolat”, 2020
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risidagi” 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni savarali amalga oshirish tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 6 oktyabrdagi PF-6079 sonli Farmoni
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-73-son qarori
5. O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining "Soliq ma‘muriyatchiligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi 359-sonli qarori
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1730-sonli qarori, 2012 yil 21 mart
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-fevraldagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi PQ-4996-sonli qarori
8. O‘zbekiston Respublikasining “Soliq va byudjet siyosatining 2018 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-454-sonli qonuni, 2017 yil 18 dekabr
9. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Soliq ma‘muriyatchiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-455-sonli qonuni, 2017 yil 18 dekabr
10. Mattos, E. Flypaper effect revisited: evidence for tax collection efficiency in Brazilian municipalities/ E. Mattos, F. Rocha, P. Arvate //Estudos Econômicos (São Paulo). – 2011. – T. 41. – №. 2. – P. 239-267
11. Жеребцов, А.Б. Управление формированием и развитием налогового потенциала региона: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 (15.); 08.00.10 / Жеребцов Андрей Борисович. - Москва, 2007. - 28 с.



12. Xudoyqulov S. K., Hududlarning soliq salohiyatini baholash metodologiyasini takomillashtirish // «Soliq ma'murchiligini takomillashtirish orqali soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya, Toshkent – 2018
13. Nicoletta Ferugilo (2007). Overview of Fiscal decentralization. UNDP.; Wallis J., Oates W. Decentralization in the Public Sector: An Empirical Study of State and Local Government // Fiscal Federalism: Quantitative Studies / Ed. by H. Rosen. Chicago: University of Chicago Press, 1988. – P. 13-15. Brennan, G. The Power to Tax: Analytical
14. Yuldasheva Umida, Hududlarning soliq salohiyatini aniqlash va tahlil qilish uslubiyotini takomillashtirish // Iqtisodiyot. 2021. №4. 68 б. (08.00.00. №25)
15. Масгрейв, Р.А. Государственные финансы: теория и практика / Р.А. Масгрейв, П.Б. Масгрейв // Пер. с англ. – М.: Бизнес Атлас, 2009. – 716 с.
16. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. No 1, yanvar-fevral, 2018 yil.
17. Слепнева Л.Р. Факторы, определяющие величину налогового потенциала Республики Бурятия // Вестник Экономист ЗабГУ. – 2013. – №6. – С. 122-136.
18. Рогатенюк Э.В. Оценка параметров налоговой политики Республики Крым // Уче- ные записки КФУ им. В.И. Вернадского. Серия Экономика и управление. – 2017. – Том 3 (69). – №1. – С. 70-84.
19. Mirzaev F.I. O'zbekistonda soliq yig'iluvchanligi darajasini oshirish yo'llari // i.f.n. ilmiy darajasi olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: ВМА, 2012. – В.5.
20. Pardaev U.U. Davlat byudjeti solikli daromadlarini rejalashtirishda soliq potensialidan foydalanish // Moliya, 2013 yil 5-son. – Toshkent: 2013. – В.65-70.
21. Brehm, S. Fiscal Incentives, public spending, and productivity – countylevel evidence from a Chinese province/ S. Brehm // World Development.– Vol. 46.– 2013.-P. 92–103.
22. Yuldasheva U.A. Tax reform of 2019 in Uzbekistan// International journal of integrated education. 2020. Vol.3. №10. JIF-7.242(08.00.00.№2)
23. Юлдашева У.А. Зарубежный опыт государственного регулирования предприятий малого бизнеса// Бизнес-эксперт. Иктисодиёт, 2020. №1(145). 181 б.(08.00.00. №3)
24. Илларионова Е.А. (2015) Экономический потенциал региона: содержание, оценка, предпосылки сбалансированного развития
25. Xayriddinov A.B. Mahalliy byudjetlar daromad bazalarining barqarorligini ta'minlash yo'llari. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan diss. avtoreferati. –T.: 2011. –b. 13.



26. Islamkulov A.K. Mahalliy byudjetlar daromadlari barqarorligini ta'minlash masalalari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2016 yil.
27. Zaynutdinova U.D. Hududlar mahalliy byudjet daromadlarini oshirish masalalari // O'zbekiston iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishga bankmoliya tizimining samarali ta'sirini kuchaytirish. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya tezislari to'plami. T.: Moliya, 2017. -b. 90.
28. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: "Sharq", 2009.
29. Alimardonov M., To'xsanov Q. Soliq nazariyasi. –T.: "O'zbekiston Yozuvchilari yushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti", 2005. -175 b.
30. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. –T.: "Fan va texnologiyalar markazi", 2003. -247 b.
31. Sanaqulova B. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash. Monografiya. –T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2014. -252 b.
32. Mahmudov N., Adizov S. Soliqlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini baholash: nazariya, amaliyot va modellash. Monografiya. –T.: "Fan", 2014. -106 b.
33. Alimardonov M. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. –T.: "Cho'lpon nomidagi NMIU", 2013. -296 b.
34. Sobirov H. O'zbekiston davlat moliyasi tarixi. – T.: "Ta'lim manbai", 2002
35. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. -T.: Adliya. 2002
36. Shamsutdinov F., Shamsutdinova Sh. Chet mamlakatlar soliq tizimi. Darslik.– T.: "Fan va texnologiya", 2011. –508 b.
37. Миляков Н.В. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: «ИНФРА-М», 2008. -520 с.
38. Malikov T., Xaydarov N. Budget (tizimi, tuzilmasi, jarayoni).
39. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
40. <http://www.mf.uz> – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti
41. <http://www.soliq.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti
42. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti